

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIK TA’LIM: XALQARO
TAJRIBA VA INNOVATSION
YONDASHUVLAR**

*mavzusidagi an’anaviy ilmiy-amaliy anjuman
materiallari*

(Buxoro, 2022-yil 6-aprel)

Buxoro – 2022



Pedagogik ta'lim: xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar [Matn]:
maqola va tezislar to'plami.

MAS'UL MUHARRIR:

Tosheva D.A. – f.f.f.d. (PhD)

TAQRIZCHILAR:

Saidova M.J. – p.f.f.d. (PhD), dots.

Tosheva N.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.

TO'PLOVCHI VA NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Saidova R.A. – f.f.f.d (PhD)

Sobirova D.R. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Murodova G.A. – o'qituvchi

Yoqubova Sh.Y. – o'qituvchi

Ushbu an'anaviy ilmiy-amaliy anjumanning ilmiy maqola va tezislari to'plamida ilm-fan va ta'lim tizimidagi keng ko'lamli islohotlar, pedagogik ta'limda xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar borasida fikr va tajriba almashish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, tadqiq etishga qaratilgan takliflarni qamrab oluvchi ilmiy, amaliy hamda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan maqolalar va tezislarining mazmuni, statistik ma'lumotlar, bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

ISBN

© BuxDU PEDAGOGIKA INSTITUTI



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*BuxDUPI Maktabgacha ta'lim
kafedrası mudiri p.f.f.d (PhD)., dotsent N.T.Tosheva
BuxDU Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi
N.Z.Qodirova*

Maktabgacha ta'lim turi O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlash nuqtai nazaridan shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Maktabgacha ta'limda bola 6-7 yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya muassasalarida hamda oilalarda amalga oshirilishi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilandi. Bu tizimni rivojlantirish shartlaridan biri "zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish"dir. Tabiiy holda savol tug'iladi: bu didaktik majmualar bog'cha bolalari hayotida qanday rol o'ynaydi? Nima uchun bugun tarbiya jarayonining og'zaki metodlaridan ko'proq amaliy metodlariga murojaat qilinmoqda? Bu savollarga maktabgacha ta'lim muassasalarining bosh maqsadi javob beradi: bolani maktabga tayyorlash, uning ruhiyatida o'qishga bo'lgan havasni, qiziqishni uyg'otish va rivojlantirishdir.

Bola maktabga kelishi bilan uning hayotida muhim bosqich boshlanishi, u shaxsning yangi ijtimoiy mavqeiga - o'quvchiga aylanishi, unga yangi talablar qo'yilishi, yangi munosabatlarda ishtirok etishi bog'cha tarbiyachisi e'tiboridan chetda qolmasligi kerak. Bolani maktabga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi va bu sohada ilmiy-tadqiqot ko'lamini kengaytirish zarur.

Bolani o'z vaqtida yetarli darajada maktabga tayyorlamaslik yoki zamon tili bilan aytganda "o'qish qobiliyati"ni shakllantirmaslik xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki u maktabga kelgach butunlay yangi dunyoga - o'zi uchun begona bo'lgan muhitga tushib qoladi. Agar bola o'qituvchi bilan bog'cha tarbiyachisi nima bilan farqlanishini bilmasa, hayotida yangi bosqich - o'quvchilik davri boshlanishini anglab yetmasa o'zida qator ruhiy holatlarni kechiradi: men ham boshqalar qatori



o'qib keta olamanmi, bolalar men bilan do'stlasharmikan, ular meni xafa qilmasmikan va boshqa.

Aslida bolaning maktabda fanlarni yomon o'zlashtirishi aqliy zakovatning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan emas, balki maktabga yetarlicha tayyor emasligidan kelib chiqadi. Shu boisdan chet el pedagogikasida "bolani maktabga tayyorlash" konsepsiyasi mavjud. Shunday konsepsiyalardan biri nemis olimi A.Kern tomonidan asrimizning o'rtalarida (50- yillarda) yaratilgan edi. Unga muvofiq:

1. Jismoniy va ruhiy rivojlanish o'rtasida o'zaro uzviylik mavjud.
2. Bola maktab talablarigacha yetilgan payt, birinchi navbatda, yetilishning ichki jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi.
3. Bu yetilishning muhim ko'rsatkichi qabul qilishni vizualli tabaqalashtirishning yetilish darajasi, timsolni ajrata olish qobiliyati hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda bolaning maktabga tayyorgarligini tashhishtirishda quyidagi to'rtta jihatlar hisobga olinishi zarur:

- 1) **jismoniy jihat**;
- 2) tabaqalashtirish (farqlash) qobiliyatining ma'lum darajasini, son va qiymatni qabul qilishning ma'lum darajasini, shuningdek, xotiraning rivojlanish darajasini inobatga oluvchi **intellektual jihat**;
- 3) diqqatni, sabr-toqatni boshqarish, topshiriqlarni bajarish tayyorgarligi ifodalangan ishga **munosabat**;
- 4) bir qadar tarbiyachidan xoli bo'lish, guruh bilan aloqa o'rnatish qobiliyatini ko'rsatuvchi **ijtimoiy jihat**.

Albatta, bolada bu ko'rsatkichlar o'z-o'zidan shakllanmaydi, ular pedagogik jarayon mahsulidir. Shu boisdan tarbiyachi bolalar ongini o'stiradigan, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantiradigan real muhit yaratishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, bog'chada kunlik olib borilayotgan mashg'ulotlar yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi kerak.



Bugun bolalarning mantiqiy firklash qobiliyatini rivojlantiruvchi chet el metodlaridan (“Montessori”, “Breyn ring”) qator maktabgacha ta’lim muassasalarida foydalanishmoqda va yaxshi natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, “Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash” tayanch dasturi ishlab chiqilganligi va tajriba-sinovdan o’tayotganligi ham ma’lum. Shu bilan bir qatorda hali-hanuz “ maktabgacha ta’lim muassasasida pedagogik texnologiya nima degani?” deb hayratda yurganlar ham kam emas.

Shu o’rinda pedagogik texnologiyalarni loyihalashning maktabgacha ta’lim muassasalari uchun o’ziga xos tomonlarini ko’rsatib o’tish joizdir:

- 1) Har bir mashg’ulotdan ko’zda tutilgan maqsad aniq o’rnatiladi;
- 2) Mashg’ulot mazmunini saralashda bir tomondan bolalarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatlari, ikkinchi tomondan - tarbiyachining ijodkorligi, mahorati, uchinchidan - bog’chadagi mavjud shart-sharoitlar hisobga olinadi;
- 3) Didaktik jarayon tuzilmasi keskin farqlanadi, ya’ni uning motivatsion bosqichi kuchaytiriladi. Boshqacha qilib aytganda **o’yinli didaktik jarayon** loyihalanayotgan texnologiyaning asosini tashkil etadi;
- 4) Didaktik jarayonning ikkinchi bosqichi - bolalarning o’quv- bilish faoliyatini (O’F) **o’yin** tashkil etadi;
- 5) Uchinchi bosqich - boshqaruv faoliyati (B) funksiyasi ham o’zgaradi. Agar o’quv jarayonida o’qituvchi o’quvchining bilish faoliyati bosqichiga ham aralashmaydigan bo’lsa, tarbiyachi faoliyati didaktik jarayonning O’f da ham ustuvorlik kasb etadi;
- 6) Texnologiyalarni qo’llash samarasi yoki yakuniy natija - bu bola shaxsini rivojlantirish va maktabga o’qishga tayyorlash ekanligiga tarbiyachi alohida e’tibor qaratishi lozim. Bola tarbiya jarayonining sust, harakatsiz obyekt bo’lib qolmasdan, balki faol ishtirokchisiga - subyektga aylanishi kerak.

Amaliyot jarayonida bir maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachisi quyidagi savol bilan murojaat qildi: “Men bir mashg’ulotda o’z guruhimni “tandirda non yopish texnologiyasi” bilan tanishtirdim. Bolalar supra atrofida joylashishdi, men



esa xuddi uyda non tayyorlagandek, barcha amallarni ketma-ket bajardim un elash, xamir qorish, achitish, zuvala tayyorlash, non yasash, suv sepish, nonni tandirdan uzib olish. Men o'tkazgan mashg'ulot yangi pedagogik texnologik loyihasimi? "Bu holat bir qarashda "yangi pedagogik texnologiya" degan boshlang'ich taasurot hosil qilsada, aslida tarbiyachining faoliyati subyektiv ko'rinishga ega. Bu yerda bolalar texnologik jarayon ishtirokchisi emas (ishtirokchiga aylanish ham mumkin emas). Chunki mashg'ulot bolalarning individual va yosh xususiyatlariga mos emas: ikkinchidan, mashg'ulot maqsadi noaniq: nima uchun 6 yoshli bolaga non yopishni o'rgatish kerak bo'lib qoldi? Uchinchidan, "non yopish texnologiyasi" o'zida tarbiya komponentlarini aniq ifodalamagani uchun pedagogik texnologiya talablariga javob bermaydi. Shu o'rinda sanoat texnologiyalari bog'cha bolalari uchun murakkab obyekt ekanligini qayd etish lozim. Yaxshisi bu texnologiyani maktab mehnat darslarida o'rgangani ma'qul. Bog'chada esa o'yin faoliyati ustuvorlikka ega bo'lib, bolaning ruhiy jihatdan rivojlanishini bir qadar tezlashtiradi.

O'yin kichkintoylar yaxshi o'zlashtira oladigan faoliyat hisoblanib, bu faoliyat jarayonida ular o'qishga, mehnatga, badiiy ijodga oid hayotiy muammolarni tezda ilg'ab oladilar. Shu boisdan o'yinga tayanib ish ko'rish - bolani maktabga tayyorlashning eng maqbul yo'li, tarbiyaviy ta'sirga hayajonli javob berishni ta'minlash usulidir.

O'yinli vaziyatlardan maqsadli foydalanish g'oyasi birmuncha ilg'or va samaralidir. Turli yoshdagi odamlar faoliyatini o'yin tarzda tashkil etish va kasb mahoratini takomillashtirish tajribasi pedagogika fani uchun yangilik bo'lmasa-da, *o'yinli didaktik jarayonni* loyihalash texnologiyasi yetarlicha ishlanmagan. Mavjud adabiyotlarda o'yinning ishbilarmonlik, rolli, ishlab chiqarish, tadqiqotchilik va o'qishga oid turlari mohiyati va mazmuni uchrab turadi, biroq ular o'yinga qo'yiladigan asosiy talablarga javob bermaydi, ya'ni: o'yin jarayonining kuchaytirilgan va turg'un motivatsiyasi, o'yinning bajaruvchi bosqichida (Bh) ishtirokchilarning muvaffaqiyatga erishishi va qanoat hosil qilishi, bilish faoliyatini



maqsadli boshqarish va o'yin so'ngida faoliyatni o'zlashtirish sifatining ta'minlanishiga erishish.

Maktabgacha tarbiya bolalari uchun o'yinning quyidagi turlari mavjud: mavzuli-rolli o'yinlar, o'yin mehnat, didaktik o'yinlar, harakatli o'yinlar, vaqti xushlik, sayr-tomosha o'yinlari, majmualiy bayram o'yinlari.

Mavzuli-rolli o'yinlar bolalarning mustaqil yoki kattalar yordamida ijtimoiy tajribani, moddiy obyektning hayotiy va badiiy taasurotlar asosida ijodiy qayta yaratish faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida bolalar nutqi, fikrlashi, xayol surishi va boshqa axloqiy sifatlari tarkib topadi. Buning uchun bola yoshiga xos kichik hajmdagi hayotiy mavzular sahna ko'rinishida ijro etiladi. Misol uchun, "bozor" sahnasini ijro etishi bilan bolalar yangi tushuncha va munosabatlarga duch kelishadi va ularni binoyidek o'zlashtiradilar (xaridor, sotuvchi, narx, savdo, qiymat, pul va boshqa).

O'yin-mehnat jarayonida bolalar atrof-olam to'g'risida chuqur tasavvurga ega bo'ladilar, ish jarayoni va harakatlarning umumiy ko'rinishini o'zlashtiradilar. Katta yoshdagi maktabgacha tarbiya bolalari uchun mehnat o'yniga tayyorgarlik ko'rishning zaruriy sharti: kostyumlarni tayyorlash, "shahar" qurish, "kanallar" qazish, konstruktordan mashinalar, ish qurollari yasash va hokazo.

Didaktik o'yinlar bolalarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashda birmuncha avzalliklarga ega. Bu o'yinlar pedagog - tarbiyachi tomonidan o'quv tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi. Foydalanilayotgan materiallar turiga qarab didaktik o'yinlar *predmetli* - didaktik o'yinchoqlar va materiallar; *mantiqiy* - "qiyin sayyohat", "labirant"; *so'zli* - o'yin topishmoqlar, masalalar, o'yin - sayyohatlar va boshqa.

Harakatli o'yinlar bolalarni jismoniy tarbiyalashda muhim vosita sanaladi. Ular har doim o'yin ishtirokchilaridan faol sensorli va divigatelli harakatlarni o'rnatilgan maqsadga erishish uchun bajarishni talab etadi. Musobaqa tarzida tashkil etilgan bu tur o'yinlar bolalarda ijodkorlik, epchillik, tezkorlik, zehinlilik kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.



O‘yin turlarni tanlash bevosita bolalar yoshiga bog‘liq ekanligini ta’kidlash joiz. Msol uchun 3 yoshli bolalar uchun o‘yin mazmun jiatdan ahamiyat kasb etmaydi, balki ularga ba’zi bir “ jo‘yali “ topshiriqlar berilishi lozim : bayroqni olib kel, do‘stingni yonida tur va hokazo.

O‘yinnig asosiy funksiyasi darsni tashkil etish shakli sifatida bolalarni bilishga oid faoliyatga jalb etishdir. Shu boisdan “ xayoliy orol”ga sayohat, multfilimda sevgan qahramonlarning hrakatlarini kuzatish, topishmoqlar aytish, bolalar bayramlari kabi o‘yinlar, bola shaxsiyati mazmunini ochib berishda, uning faoliyatini rivojlantirishda, umumiy qizqish va fikrlar mushtarakligi asosida ularni jipislashtirishga imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1..I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G .E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o‘quv dasturi T: 2018. 1-81-b;
2. F.Qodirova, SH.Toshpo‘latova, M.A‘zamova. “Maktabgacha pedagogika”.-T., “Ma‘naviyat”. 2019.
3. R.A. Mavlonova M. Arabova, G‘.Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008
4. J.G‘.Yo‘ldoshev, F.Yo‘ldosheva, G.Yo‘ldosheva “Interfaol ta’lim sifat kafolati” (Bolaga do‘stona munosabatdagi ta’lim) Toshkent-2008.
5. Ishmuamedov R. , Abduqodirov A., Pardaev A., “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” Toshkent “Iste’dod jamg‘aramasi” 2008.
6. N.N. Aizixo‘jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” Toshkent O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘aramasi nashriyoti. 2006.

MAKTABGACHA TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK

TA’SIR USLUBLARI

BuxDUPI Maktabgacha ta’lim

kafedrasi mudiri p.f.f.d (PhD)., dotsent N.T.Tosheva

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

N.Z.Qodirova



Raxmanova I.	MUSIQA O'QITUVCHISINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH	981
Ro'ziyev D. Sulaymonova G.	AN'ANAVIY XONANDALIK TARAQQIYOTINING AYRIM MASALALARI	987
Ro'ziyev D. Sulaymonova G.	O'QUVCHILARNI AN'ANAVIY XONANDALIKKA O'RGATISHDA OVOZLARNING TURLARINI ANIQLASH VA ULARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	990
Sharipova S.	O'TMISH MUTAFAKKIRLARINING MUSIQA SAN'ATI HAQIDAGI FIKRLARI	993
Umedjanova M. L.	OLIY TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI	998
Nurullayev F. Rustamova D.	TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK, MUSIQIY XUSUSIYATLARI VA CHOLG'U ASBOBLARIDA JO'R BO'LISH METODLARI	1004
Гиёсова Ф.	ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИКАДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ УСУЛЛАРИ	1008
G.T.Boymurodova N.Z.Qodirova	YANGI PROFESSONAL TA'LIMDA KABIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	1012
N.T.Tosheva Sh.Murodova Z.E.Hamdammova	BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI	1015
N.T.Tosheva A.Sh.Saidova A.L.Olimova	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA	1020
N.T.Tosheva N.Z.Qodirova S.Q.To'xtayeva	NOAN'ANAVIY DARS- INTERFAOL USULLAR QO'LLASH UCHUN MUHIM JARAYON SIFATIDA	1024
N.T.Tosheva N.Z.Qodirova	MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1029

